



TILSHUNOSLIKDA KONSEPT VERBALIZATSIYASI USUL VA VOSITALARI

*Rejapova Moxlaroy Farxodbek qizi,
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti
mokhlaroymamadaliyeva@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada konsept verbalizatsiyasi jarayonining lingvistik-kognitiv jihatlari tahlil qilinadi. Konseptlarni nutqda aks ettirish vositalari va ularning kommunikativ ahamiyati muhokama qilinib, lingvistik ong orqali leksik-semantik va sintaktik usullar orqali konseptlarning ifodalanish jarayoni yoritiladi. Frazeologik birliklar, paremiologik usullar va metaforik strukturalarning konsept verbalizatsiyasidagi roli ko‘rib chiqiladi. Muayyan konseptlarning turli til va madaniyatlarda aks etish muammolari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: konsept, verbalizatsiya, lingvistik ong, kognitiv lingvistika, leksik verbalizatsiya, til birliklari.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистико-когнитивные аспекты процесса вербализации концептов. Рассматриваются средства выражения концептов в речи и их коммуникативное значение, а также способы их выражения через лингвистическое сознание посредством лексико-семантических и синтаксических методов. Анализируются роль фразеологических единиц, паремиологических методов и метафорических структур в вербализации концептов. Обсуждаются проблемы представления отдельных концептов в различных языках и культурах.

Ключевые слова: концепт, вербализация, лингвистическое сознание, когнитивная лингвистика, лексическая вербализация, языковые единицы.

Abstract. This article analyzes the linguistic-cognitive aspects of the concept verbalization process. The means of expressing concepts in speech and their communicative significance are discussed, along with their realization through linguistic consciousness using lexical-semantic and syntactic methods. The role of phraseological units, paremiological methods, and metaphorical structures in concept verbalization is examined. The representation of specific concepts in different languages and cultures is also explored.

Keywords: concept, verbalization, linguistic consciousness, cognitive linguistics, lexical verbalization, linguistic units.

KIRISH. Konseptlarning nutqda ifodalanishi inson tafakkurining lingvistik ifodasi bo‘lib, bu jarayon tilshunoslikda turli yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Nutqiy voqealanish

jarayonida konseptlar semantik, sintaktik va morfologik shakllarda namoyon bo‘ladi. Har bir til o‘z konseptlarini o‘ziga xos usullar bilan verbalizatsiya qiladi. Bu esa lingvistik va kognitiv jarayonlarning bir-biri bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tilshunos Sh.Safarov konseptning lisoniy voqelanish jarayoni insonning aqliy va kognitiv mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq ekanini aytadi. Uning ta’kidlashicha, konsept dastlab voqelikni idrok etishdan kelib chiqadigan mazmunli obraz sifatida shakllanadi, so‘ng ongda qayta ishlanib, ichki nutq jarayonlari orqali lisoniy shaklga o‘ta boshlaydi [1]. T.F.Yefremova esa verbalizatsiya "fikrni og‘zaki nutqda amalga oshirish" [2], deya ta’kidlaydi. T.P.Solomennikova konsept verbalizatsiyasini olamni tasvirlovchi belgilarni tovushli ifodalar orqali bayon qilish jarayoni sifatida ko‘radi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Lingvistik ongni tushunishda olimlar darajaviylik va maydoniylik tamoyillariga asoslanadilar, shundan kelib chiqib, N.F.Alefirenko biz so‘z yuritayotgan mavzu bo‘lmish konsept verbalizatsiyasini ana shu darajaviy uslubga xos deb hisoblaydi. Bunday uslubda axborot bir suratdan boshqa bir surat(kod) ga o‘tadi. Ya’ni, konsept verbalizatsiyasi jarayonida axborot leksik-semantik, grammatick va kommunikativ daraja bosqichlaridan o‘tadi [4]. Bu jarayonlar ongdagi murakkab mexanizmlar orqali til vositasida sodir bo‘ladi.

MUHOKAMA. Konsept ko‘p qatlamlili tuzilishga ega bo‘lib, bu tuzilma uning ifoda vositalarini tahlil qilish orqali aniqlanadi [5]. Ularning manbalari so‘zning leksik izohlari, sinonimlar, frazeologik birliklar, maqollar va ushbu konsept aks etgan matnlar – badiiy asarlar, san’at namunalaridan tortib, publisistik materiallar yoki og‘zaki nutqlargacha bo‘lishi mumkin [5].

Konseptni verbal ifodalovchi vositalar uni tafakkurning mahsuli ekanidan dalolat beradi, muayyan konseptning ma’nosi turfa xil til birliklari (turli so‘z turkumlari yoki grammatick vositalar) orqali ifodalana olishi mumkin, bu ifodalash usullarining ko‘lamni keng ekanini anglatadi [6]. Verbal ifoda shaklini tanlash o‘zaro uzviy bog‘langan shaxsiy ma’no, ruhiy tasavvur va gapiruvchining lug‘at boyligi kabi omillarga bog‘liq hisoblanadi [7].

Z.D.Popova konsept verbalizatsiyasining leksik, frazeologik, sintaktik va morfologik usul va vositalari mavjudligini ta’kidlaydi. N.A.Zemskova esa erkin so‘z birikmalarini ham bu qatorga kiritadi hamda murakkab, mavhum yoki muayyan shaxsga tegishli bo‘lgan konseptlarni ochib berish yoki muhokama qilish zarurati tug‘ilganda matnlar va matnlar to‘plami orqali ifodalishini qo‘sishimcha qiladi [8].

Ko‘pchilik kognitolog-tilshunoslar muloqot uchun zarur bo‘lgan konseptlar tilda o‘z ifodasini topishida tayyor leksik birliklar asosiy aks ettiruvchi vositalar ekani haqida yakdil fikrga egalar [9]. Xususan, T.G.Mejibo takidlashicha, “konsept mohiyatining qandaydur qismi mental tarzda ifodalansa ham, so‘z har doim konseptning asosiy reprezentasi bo‘lib kelgan [10]. A.P.Babushkin esa konseptning mavjudligi va yetkazilish shaklini ham so‘z deb bilib, uni «til vakillarining etnik xotirasida verbal ifodalangan va angangan mazmun sifatida saqlanishi»ni ta’kidlaydi [11].

L.B.Savenkova frazeologizm va paremiyalarni madaniy konseptlarning assosiy verbalizatsiya vositalari sifatida ko‘radi [12]. Chunki ular tilning madaniy jihatlarini aks ettirib, til sohiblarining dunyoqarashini ifodalaydi. Aynan frazeologik birliklarda konsept ekspressiv va estetik tusga ega bo‘ladi. Bunda konseptlar turli so‘z birikmalari yoki barqaror birliklar, iboralar va idiomalar orqali aks ettirilib, bu usul murakkab leksik verbalizatsiyaga qo‘shimcha sifatida ishlataladi. Ko‘rinadiki, frazeologizmlar o‘z ramziy ma’nolari orqali turli konseptlarni samarali tarzda ifodalashga xizmat qiladi, madaniy ma’lumotni boyitib, fikr va tuyg‘ularni boyroq va qiziqarli shaklda yetkazishga yordam beradi.

Z.D.Popova va I.A.Sternin konseptni ifodalashda rus tiliga xos paremiyalarning ham o‘rnini borligini ta’kidlaydilar: paremiyalar odatda tarbiya yoki o‘rgatish maqsadida ishlataladigan maqollar, matallar, aforizmlar hisoblanib, konseptning verbalizatsiyasi paremiyaning to‘liq matni orqali amalga oshiriladi [13]. Oddiy so‘zlar orqali murakkab tushunchalarni aniq ifodalay olish imkoniyatiga egaligi bilan paremiyalar nutqning ta’sirchanligini oshiribgina qolmay, uni esda qolarli ham qiladi: “The early bird catches the worm”. Ushbu misolda erta turgan odam imkoniyatlarni qo‘lga kiritishi va vaqtida harakat qilishning ahamiyati oddiy so‘zlar vositasida ta’sirchan ifoda etilmoqda. Shu bilan birga paremiyalar madaniy an’ana va qadriyatlarni aks ettiradi, bu esa konseptning mintaqaviy va ijtimoiy ko‘rinishini ta’kidlaydi. Masalan, “O‘zbekning qozoni doim qaynar” — o‘zbek xalqining mehmondo‘stligini va to‘kinlikka intilishini ifodalaydi. Demak, paremiya orqali konseptlarni ifodalash uning qisqalik, ramziylik va madaniy boylik bilan uзвiy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Yaqin vaqtлага qadar konseptlarni sintaktik vositalar orqali ifodalash haqida mulohazalar uchramas edi. XX asrning oxiriga kelib sintaktik vositalar ham konsept reprezentasi sifatida talqin qilina boshladi. Bu turdagι verbalizatsiya usuli haqida Z.D.Popova va G.A.Voloxina sintaktik konseptlar nazariyasini ishlab chiqqanlar. Ularning fikriga ko‘ra, sintaktik ifodalangan konseptlar til konseptosferasining muhim, balki ustun qismidir; sintaktik reprezentatsiya uchun konseptning bir qator pozitsion va tuzilish mexanizmlari yaratiladi-ki, ular konseptning alohida va izosemantik belgilariga tayanadi [14]. Bunday konseptlarga obyektning mavjudligi, harakati, qandaydur xususiyatga ega bo‘lishi yoki obyektning mavjud emasligi kabi sintaktik konseptlar misol bo‘ladi. L.V.Vardanyan ingliz tilida “safety” konseptining sintaktik satxda verbalizatsiya qilinishini tadqiq qilar ekan, so‘z birikmalari konseptga nisbatan nomlovchi, aniqlovchi, va tushuntiruvchi funksiyalarga ega bo‘lishini ta’kidlaydi (*xavfsiz muhit*); gaplar esa kommunikativ funksiyani bajaradi (*Xavfsizlikni ta’milash muhim*) [15]. Bundan kelib chiqadiki, konseptning sintaktik verbalizatsiyasi tilning sintaksis darajasida, ya’ni gap tuzilmalari va so‘z birikmalari orqali amalga oshadi, bu jarayon konseptni faqat so‘z orqali emas, balki gapning mazmuni, tuzilishi va tuzilma ichidagi urg‘ular orqali ham aniqlashga imkon beradi.

XXI asrning boshida konseptni tilda aktuallashtirishda morfologik uslub ham qo‘llanilishi haqida olimlarning fikrlari e’lon qilina boshladi. Bunda konseptlarning grammatik jins, son, zamon kabi belgilari morfologik kategoriylar orqali ya’ni, so‘zning o‘zak va

qo‘shimchalar orqali o‘zgarishiga asoslanadi. Ingliz tilida prefikslar, suffikslar, ko‘plik, zamon, va boshqa morfologik elementlar konseptni aniqroq va kengroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Misol uchun, ingliz tilida *inability* so‘zi *in-* inkor ma’nosidagi prefiks orqali "ability" konseptining aksi sifatida verbalizatsiya qilingan: "*His inability to focus affected his work*". Bunday morfologik elementlar til tizimida ma’no qatlamlarini boyituvchi asosiy vositalardan biridir. Ammo barcha tillarda ham bu kategoriylar uchrayvermasligini hisobga olsak [9], konseptlarning ayrim belgilari turli til va madaniyatlarda o‘zgacha ifodalanish uslubiga ega ekanini ko‘ramiz.

Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, til konseptlarda mujassamlangan ma'lumotlarning faqat ma'lum bir qismini kodlay oladi, chunki konsept individual bilish jarayonining natijasi sifatida aniq shakllangan tuzilishga ega emas, bu esa uni to‘liq aks ettirishni imkonsiz qiladi, deya ta’kidlaydi K.R.Kalashnikova [16]. Z.D.Popova va I.A.Sterninning ham bu masalada fikrlari bisyor: ular konseptlar har doim ham tilga ko‘chavermasligini, uning muloqot uchun muhim tarafigina verbal tus olishini ta’kidlaydilar, bu holda, tilda voqelanmagan konseptlar inson ongida mavjud bo‘lib qolaveradi [17]. Bundan tashqari, ba’zi konseptlar shunchalik murakkabki, ular uchun tilda aniq so‘z yoki ibora yo‘q, natijada, bu konseptlar ba’zida faqat metafora, analogiya yoki boshqa ramziy vositalar yordamida tushuntiriladi. Xususan, "qayg‘u" konsepti tilda ko‘pchilik holatlarda umumiyligi so‘zlar bilan ifodalanadi, lekin inson har bir individual his-tuyg‘usining o‘ziga xos bo‘lgan nuanslarini ifoda qilishda tildan cheklangan tarzda foydalanadi, ya’ni nima sababdan qayg‘uda, qay darajada qayg‘uda ekanligini har doim ham to‘liq ifodalay olmaydi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, konseptlarning til vositasida verbalizatsiya qilinishi nafaqat leksik va grammatik darajada, balki semantik, madaniy va kognitiv omillar bilan ham bog‘liqdir. Yuqorida sanab o‘tilgan masalalarning yechimini topishda tilshunoslik, tarjima nazariyasi, madaniyatshunoslik va kognitiv psixologiya kabi fanlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi, chunki, konseptlarni to‘g‘ri verbalizatsiya qilish ilmiy-ijodiy izlanish va chuqur tahlilni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.Safarov. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor – 2006. - B. 24.
2. Ефремова. Т. Ф. Толковый словарь Ефремовой. 2000.
3. Соломенникова Т. П. Типы вербализации концептов в медицинском дискурсе //Глобальный научный потенциал. – 2012. – №. 6. – С. 27-32.
4. Алефиренко Н. Ф. Методологические основания исследования проблемы вербализации концепта //Вестник ВГУ. Серия гуманитарные науки. – 2004. – №. 2. – С. 60-66.
5. Петрова Е.Е, Рубцова С.Ю. Вербализация концепта quality time // Вестн. Том. гос. ун-та. Филология. 2019. № 62. – С. 150

6. Трушкова Л. О. Эмоциональный концепт Sadness: когнитивно-дискурсивный анализ: дисс.... канд. филол. наук: 10.02. 04. – 2010. – С. 38.
7. Nemickienė Ž. Concept" in Modern Linguistics: the Component of the Concept "Good. – 2011. – Р. 4
8. Земская Н. А. Концепты «истина», «правда», «ложь» как факторы вербализации действительности: когнитивно-прагматический аспект (на материале русского и английского языков). Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Краснодар. – 2006. – С. 10.
9. Popova Z.D. Способы вербализации концептов как проблема когнитивной лингвистики //Respectus Philologicus. – 2009. – №. 16 (21). – С. 56-61.
10. Межибо Т.Г. План выражения концепта: Способы языковой презентации // Вестник ТГУ. 2008. №2. – С. 203.
11. Прокофьева Т. А. Концепт «кризис» в современном политическом дискурсе. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук – СПб., 2006. – С.7
12. Авдеева О.И. Концепт как основа обучения неродному языку (на примере фразеологической вербализации концептов в русском языке) // Вестник Адыгейского государственного университета. 2006. №4. – С.1.
13. Попова З.Д, Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Учебное издание Москва АСТ: «Восток-Запад» 2007. – С.179
14. Волохина, Г. А.; Попова, З. Д. Синтаксические концепты русского простого предложения. Воронеж: Облитография. 1999. – С. 169.
15. Варданян Л. В. Характеристика словосочетаний как средств синтаксического уровня вербализации концепта SAFETY в английском языке //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2023. – Т. 16. – №. 1. – С. 207-211.
16. Калашникова К.Р. Смысловая структура концепта и его вербализация // Вестник Башкирск. ун-та. 2018. №2. – С. 428.
17. Попова З.Д, Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Учебное издание Москва АСТ: «Восток-Запад» 2007. – С.14-15